

Konstitutsiya – saylovlarning shaffoflik va ochiqligini ta'minlashda OAVlarning rolini kengaytirish omili

V.Sadullayeva, BVPKQT va MOI,
“Ijtimoiy fanlar va ma'naviyat asoslari” kafedrası o'qituvchisi

Saylovlar – bu mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy normalarning nechog'liq demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, xalqning o'z xohis-irodasini erkin ifoda etishning, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo'lib, o'ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masaladir.

ISLOM KARIMOV

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida saylovlarning tashkil etilishi va o'tkazilishiga oid qonunchilik bosqichma-bosqich takomillashtirilib, unda ommaviy axborot vositalarining bevosita va bilvosita ishtirok etishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Agar 1994-yilda davlat vakillik hokimiyati organlarga saylovlarni 475 OAV, shu jumladan, 3 nodavlat elektron nashr yoritgan bo'lsa, , 2009-yildagi parlament saylovlarini yoritishda 200 dan ziyod xorijiy va 50 dan ziyod mahalliy davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalari ishtirok etgan. Bundan tashqari, saylov kampaniyasi bosqichlari haqidagi axborotlar Milliy teleradiokompaniya tomonidan nafaqat O'zbekiston hududiga, balki sun'iy yo'ldosh orqali 100 dan ziyod mamlakatga uzatilgan.

2014-yildagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov kampaniyasi yoritish bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, saylov jarayonining barcha bosqichlarida oshkoralik, ochiqlik va shaffoflikni, OAV orqali jamoatchilikni saylovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish to'g'risida xolisona va o'z vaqtida xabardor qilishni ta'minlash maqsadida respublika matbuot markazi tashkil etildi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishni

yoritish to'g'risida O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy Axborot agentligi hamda "Jahon" axborot agentligi bilan bitimlar imzolandi.

Ta'kidlash o'rinliki, saylov kampaniyasini ommaviy axborot vositalari orqali yoritishning huquqiy kafolatlari Asosiy Qonunimiz asosida ishlab chiqilgan saylov qonunchiligida mustahkamlangan. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining 6-moddasi saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishdagi oshkoralik masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlikning borishi va saylov qanday o'tayotganligini yoritib borishi belgilangan. Xususan, saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga doir barcha tadbirlarda, shuningdek saylov kuni ovoz berish xonalarida va ovozlarni sanab chiqishda deputatlikka nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalardan bittadan kuzatuvchi, ommaviy axborot vositalarining vakillari, boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar va harakatlardan kuzatuvchilar qatnashish huquqiga egadirlar" deya qayd etilgan. Saylov qonunchiligiga muvofiq, saylov kuni ommaviy axborot vositalari xodimlari uchun saylovning qanday borayotgani, unda fuqarolarning faolligiga doir masalalarga bag'ishlangan brifing va matbuot anjumanlari o'tkaziladi. Shu maqsadda bugungi kunda saylovchilarga saylov qonunchiligi meyorlarini keng tushuntirish, milliy saylov tizimini yanada demokratlashtirishning mazmun-mohiyatini targ'ib etish, aholi huquqiy savodxonligini oshirish, saylovchilarni mamlakat hayotidagi eng muhim ijtimoiy-siyosiy voqea sifatida saylovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish haqida muntazam xabardor qilib borish ishlarini tashkil etish uchun jurnalistlarga zarur sharoitlar yaratilgan.

Bugungi kunda Markaziy saylov komissiyasining markaziy, hududiy bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklari bilan saylovga tayyorgarlik hamda uni o'tkazish to'g'risidagi axborotlarni o'z vaqtida taqdim etish va tarqatish borasida o'zaro faol hamkorlik mexanizmi yo'lga qo'yildi. Saylov

komissiyalarining barcha tadbirlari, shu jumladan, Markaziy saylov komissiyalari majlislari OAV vakillari ishtirokida o'tkazilishi qat'iy belgilangan. Ushbu jarayonda aholiga saylov jarayonlarini tushuntiruvchi, siyosiy partiyalar bilan tanishtiruvchi mavzuga doir teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar, axborot roliklari efirga muntazam ravishda uzatilishiga katta e'tibor qaratiladi. Shuningdek, saylov jarayoni bosma va internet nashrlarida ham faol yoritib boriladi. Bu kabi chora-tadbirlar saylov jarayonining barcha ishtirokchilari uchun OAVdan foydalanishda teng sharoitlarni ta'minlash bilan birga, ommaviy axborot vositalari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Zero, saylovlarning transparentligi, milliy saylov qonunchiligimizda mustahkamlangan demokratik tamoyillar – ochiqlik va adolatlilik asosida o'tishi ko'p jihatdan OAV faoliyatiga bog'liq.

Mamlakatimiz OAVlari fuqarolarning 2014-yil dekabr oyida o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga oid jarayonlarning barcha bosqichlari haqidagi umumiy xabardorligini ta'minlashning muhim bo'g'iniga aylanadi.

Mamlakatimiz saylov qonunchiligida ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlik ko'rish jarayoni va saylov qanday o'tayotganini yoritib borishi mustahkamlangan. Saylovoldi tashviqoti olib borilayotganda ommaviy axborot vositalari teng shart-sharoit va imkoniyatlar prinsipiga amal qilgan holda , deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalar vakillariga o'z efir vaqti va nashr maydonini qonunda belgilangan tartibda taqdim etadi. Bundan tashqari, ular fuqarolik jamiyati institutlaridan biri sifatida saylov jarayonida jamoatchilik nazorati vazifasini bajaradi.